

**YOSHLAR HUQUQLARINI KAFOLATLASH YANGI O‘ZBEKISTON
KONSTITUTSIYASINING USTUVOR YO‘NALISHI**

Usmonova Shahina Xudoynazar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika institute
Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim
Yo‘nalishi 3-21-guruh talabasi

Annotatsiya: *Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda yangi qonunlar, yangi o‘zgarishlar kun sayin ortib bormoqda. Bu albatta biz yoshlarni ma‘naviy madaniy jihatlardan boyliklarga yetaklaydi albatta. Yangi konstitutsiyamiz biz uchun yana bir ajib imkon bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz.*

Kalit so‘zlar: *davlat grantlari, huquqiy erkinlik, qonuniy manfaatlar, barqarorlik, strategik, siyosiy savodxonlik, imtiyozlar.*

Asosiy qism: O‘zbekistonda yoshlarning soni bugungi kunda 19 mlndan oshmoqda, ya‘ni mamlakatimiz aholisining 65 foizga yaqinini tashkil etmoqda, shu sababdan ham yoshlar siyosati mamlakat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish maqsadida bir qator tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilib, davlatimiz tomonidan yoshlarga oid 50 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilingan.

2020-yil 30-iyundagi Prezident qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi va yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechim topish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash agentlikning ustuvor vazifasi etib belgilandi. Yoshlarning huquqlarini himoya qilishda yaratilgan yana bir imkoniyatlardan biri bu – Yoshlar portali hisoblanib, unda ta‘lim olayotgan va ishlayotgan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va tashabbuslar haqida ma‘lumot berib boriladi. Yoshlar portali orqali yoshlar turli imtiyozlar, imkoniyatlar, grantlar, tanlovlar va turli tadbirlar haqida tez va oson ma‘lumot olishlari mumkin.

Yoshlar deganda o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar tushunilsa, yoshlar huquqlari deganda ularning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari tushuniladi. Qonunchilikda belgilangan tartibda yoshlar uchun quyidagilar kafolatlanadi:

- bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishi;
- bepul umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim olish;
- davlat ta‘lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta‘lim olish;
- ta‘lim muassasalarida o‘qish uchun imtiyozli kreditlar berish;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta’lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

- mehnat sohasida yoshlarga ishni ta’lim bilan qo‘shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishi, inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida Prezidentimiz oliy ta’limda tahsil olayotgan yigit va qizlar uchun turli xil imtiyozlar belgilamoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan yigit-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash, ularni zamonaviy kasb-hunarlar o‘rgatilishiga keng jalb etish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyada har kim ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, bepul 8 umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi belgilangan bo‘lib, yoshlar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olish huquqiga egadirlar.

Konstitutsiyamizda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqini ta’minlashga doir norma belgilanib, unga ko‘ra fuqarolarni, ayniqsa, sog‘lig‘ida muammosi bo‘lgan bolalarni ta’lim va tarbiya olishi uchun bog‘cha, maktab, oliy ta’lim tashkilotlarida maxsus sharoitlarni yaratish ijtimoiy davlatning vazifalari ekanligi belgilandi. Bu kabi ta’limga oid alohida normaning belgilanishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim va tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishiga, ta’lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda **Markaziy Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiladigan jami aholining qariyb yarmini yoshlar tashkil etadi.** Bu muhim omil, bir tomondan, ana shu ko‘psonli navqiron insonlarning huquqlarini yanada to‘la ta’minlash choralarining dolzarbligini bildirsa, ikkinchi tomondan, barkamol yosh avlod kuch-shijoati, bilimi va salohiyatini taraqqiyot, barqarorlik hamda bunyodkorlik faoliyatiga yo‘naltirish alohida ahamiyat kasb etishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti joriy yil 16 oktyabr kuni Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan *Butunjahon turizm tashkiloti (YuNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasida* qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Davlat rahbari, jumladan, yaqinda Samarqandda ochilgan turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha dunyoda o‘xshashi yo‘q YuNVTO Xalqaro turizm akademiyasida mutaxassislarni o‘qitish uchun maxsus grantlar ajratilishini e’lon qildi. O‘zbekiston Prezidenti, shuningdek, yoshlar uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g‘oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylanadigan Jahon yoshlar turizmi sammitining navbatdaxisini Toshkent shahrida o‘tkazishni taklif etdi.

Yer yuzining qaysi hududida bo‘lmasin, yoshlar yanada adolatli va teng huquqli muhitda yashashni hamda eng zamonaviy imkoniyatlar va qulayliklardan foydalanishni, qolaversa,

o‘zlari mansub jamiyatlardagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkin ishtirok etishni xohlaydilar. Ular hozirgi davrda to‘laonli ta‘minlanishi tobora o‘tkir muammoga aylanayotgan ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va gender tenglik bilan bog‘liq huquqlari yo‘lidagi turli g‘ovlar bartaraf etilishini haqli ravishda talab qilib chiqmoqdalar.

Yoshlar huquqlari davlat himoyasidir. Yoshlar huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining asosiy qoidalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII-X-boblarida, ayrim istisnolardan tashqari, yoshlarga bevosita tegishli bo‘lgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy inson huquqlari aks etilgan.

Konstitutsiyaning **45-moddasida** “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir” deyilgan.

Konstitutsiyaning **64-moddasida** “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi” degan norma e‘tirof etilgan.

Yoshlarning taraqqiyot sohasidagi hal qiluvchi mavqeidan kelib chiqib, ularga o‘z salohiyatlarini namoyon etishlari uchun yetarlicha bilim berish va imkoniyatlar eshigini keng ochish kerak. Xususan, yoshlar iqtisodiyot rivojiga munosib ulush qo‘sha olishlari uchun, bir tomondan, ular zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, ikkinchi tomondan, mehnat bozorida ular uchun keng yo‘l ochib berilishi shart.

Shu ma’noda, BMT tarixida ilk bor bu borada **“Yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etish orqali demokratiyani mustahkamlash” nomli Yoshlar strategiyasi** qabul qilingani juda muhim.

O‘zbekiston 2030 yilgacha mo‘ljallangan BMT Strategiyasini shiddat bilan amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qisqa muddat ichida O‘zbekistonda Yoshlar parlamenti, BMTning Yoshlar maslahat kengashi tuzilganini olqishladi. Mamlakatimizda yoshlarni jamiyat hayotiga tom ma’noda jalb etish, ularning huquqlari va imkoniyatlarini tubdan kengaytirishga qaratilgan ko‘plab strategiyalar qabul qilingani ham xalqaro hamjamiyat e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

Yoshlarga oid siyosat sohasidagi xorijiy amaliyotni tahlil qilish bilan birga, mamlakatimizning so‘nggi olti yildagi muvaffaqiyatli tajribasini ham alohida ta’kidlash lozim. Aytish joizki, bugungi kunda yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirilib, keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunki bu davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bugungi sharoitda mamlakatimizda bu masalaga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz rahbari butun dunyoda yoshlar davlat taraqqiyotining dvigateli ekanligini hisobga olib, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi ma‘ruzasida jahonda barqaror va har tomonlama rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan bir qancha tashabbuslarni ilgari surdi. Ana shunday tashabbuslardan biri yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish

sohasida umume’tirof etilgan standartlarni belgilab beruvchi, shuningdek, bu borada davlatlar o’rtasidagi hamkorlikni ta’minlaydigan “Yoshlar huquqlari to’g’risida”gi xalqaro konvensiyani qabul qilish taklifidir.

Masalan, yangi Konstitutsiya loyihasida yoshlar huquqlariga bag’ishlangan alohida bob mavjud bo’lib, unda davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini himoya qilishni ta’minlash, shuningdek jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini rag’batlantirish.

Afsuski, amaldagi Konstitutsiyada yoshlar huquqlariga bag’ishlangan hech qanday qoidalar yo’q edi. Bu huquqlar uchun mas’uliyatni davlat zimmasiga yuklash yoshlarning jamiyat va davlat hayotida o’zini to’la namoyon etishiga xizmat qiladi.

Yangi Konstitutsiya loyihasida ham yoshlarning oliy o’quv yurtlarida davlat hisobidan grant asosida o’qish huquqi, ya’ni davlat hisobidan oliy ta’lim olish imkoniyati “iqtidorli yoshlarga kafolatlangan. O’z navbatida, bu oliy ta’lim muassasalarida davlat grantlari uchun hamisha kvotalar ajratilishi va bu tartibning hech qachon bekor qilinmasligini anglatadi”.

Yoshlar huquqlarini eng yuqori huquqiy darajada ta’minlash nafaqat ta’lim sohasida, balki boshqa ustuvor yo’nalishlarda ham yoshlarni yangi sifat bosqichiga qo’llab-quvvatlash samaradorligini oshiradi.

Konstitutsiya yoshlarning jamiyat hayotida ishtirok etish huquqini kafolatlaydi. Demak, bolalar va yoshlar o’z fikrini bildirish huquqiga ega. O’zbekistonning bolalar va yoshlarga nisbatan zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlari tamoyillarini nazarda tutuvchi muhim jihatlarni inobatga olgan holda, avvalgi Konstitutsiyaning ko’plab moddalariga tuzatishlar kiritildi. Sog’liqni saqlashning yagona qonunchilik bazasini yaratish masalalari qayd etilgan. parvarishlash tizimi, tarbiya va ta’lim tizimlari, shu jumladan umrbod ta’lim. Shunday qilib, oila, bolalar va yoshlar huquqlarini himoya qilish darajasi davlatning ijtimoiy kafolatlari darajasining muhim ko’rsatkichidir. Shunday qilib, mamlakatimizning yangi Konstitutsiyasida oila instituti tajriba, an’analar, eng muhimi, asosiy qadriyatlarni to’plash va kelajak avlodlarga yetkazish orqali jamiyatni takror ishlab chiqarish va takomillashtirishning asosiy mexanizmi sifatida belgilab qo’yilgan.

Yosh avlod manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashning adekvat qiymat mexanizmi davlat kelajagi garovi bo’lsa-da. Xuddi shu 1989 yildagi Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyada bolaning shaxsiyatining har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun oila muhitida, baxt, sevgi va tushunish muhitida o’sishi zarurligini e’tirof etishi bejiz emas. imzolagan davlatlar bolalarni ularning farovonligi uchun zarur bo’lgan himoya va g’amxo’rlik bilan ta’minlashga majbur qiladi. Yangi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati davlat zimmasiga yuklatilgan mas’uliyat – yoshlar uchun munosib sharoitlarni ta’minlashga qaratilgan bo’lib, bu nafaqat amaldagi milliy qonunchilik, balki xalqaro huquq normalari bilan hamohangdir.

Yoshlar uchun oliy ta’lim imkoniyatlari kengaymoqda va bu juda muhim, chunki kelgusida ish bilan ta’minlash va oliy ta’lim ochadigan imkoniyatlar yoshlarni o’ziga jalb qilmoqda. So’nggi yillarda oliy o’quv yurtlari soni keskin ko’paydi, oliy ta’limni qamrab olish ko’paymoqda, yoshlar ta’lim shaklini – sirtqi, kunduzgi bo’limni, shuningdek, qaysi

oliy o‘quv yurtiga kirishni – xususiy yoki davlat tanlashlari mumkin. Bundan tashqari, shartnomani to‘lash uchun imtiyozli kreditlar beriladi.

Mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash naqadar keng ko‘lamli amalga oshirilayotganini ko‘rib turibmiz, Konstitutsiyamizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish me‘yorining mustahkamlab qo‘yilishi yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning barcha yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan tadbirlarni yanada mustahkamlaydi. . Bu barcha sohalarga taalluqlidir - ta'lim olish, bandlikni ta'minlash, moddiy farovonlikni oshirish, martaba imkoniyatlari, mehnat bozoriga moslashish va boshqalar. Bu jarayonda navqiron avlodni qo‘llab-quvvatlashni o‘z zimmasiga olgan davlatning o‘rni faol bo‘lishi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va samaradorligi yoshlarning qaysi yo‘lni tanlashini belgilab beradi. Yoshlarga oid davlat siyosati qanchalik kuchli bo‘lsa, butun jamiyat shunchalik barqaror bo‘ladi, chunki barqarorlikka aholining eng faol qismi erishiladi.

Shunday qilib, mamlakatimizning asosiy qonuniga yoshlarga oid davlat siyosati asoslarini mustahkamlovchi o‘zgartirishning kiritilishi oldinga qo‘yilgan muhim qadam bo‘lib, yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va bu borada yagona yondashuvni shakllantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sabirovich, R. M., Mahmudqulovich, I. Z., Mamirjon ogli, O. M., & Saydaliyevich, U. S. (2022). KONSTITUTSIYA-YOSHLARNI IJTIMOIIY FAOLLAGINI OSHIRISH. Scientific Impulse, 1(4), 2010-2015.
2. Shonazarovna, M. V. (2021). KONSTITUTSIYA BAXTIMIZ QOMUSI. Евразийский журнал академических исследований, 1(9), 79-81.
3. Faridunmirzo, M. (2023). KONSTITUTSIYA MENIKI, SENIKI, BIZNIKI, KONSTITUTSIYA-BARCHAMIZNIKI!. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 9(1), 173-176.
4. Шодиевич, Ш. Х., Эрматов, Н. Ж., Расулова, М. Р., Шодиев, Ж. Х., & Хожаназарова, С. Ж. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 67-75.
5. Шодиев, Ж. Х., & Алиева, С. С. (2023). Источники финансирования инвестиционной деятельности со стороны государства. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(2), 294-297.
6. Болтаев, К. С., & Хамза, Ш. Ш. (2022). ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРДА ЎҚИТИШНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ЎРНИ. PEDAGOGS jurnali, 4(1), 328-333.
7. Sh, S. H., Mamarasulova, N. I., & Yusupov, M. I. (2022). HOZIRGI ZAMON TALABALARINING BILIM OLIHIDA ETIK–ESTETIK CHALG‘ITUVCHI OMILLAR. PEDAGOGS jurnali, 9(2), 90-95.

8. Shodievich, S. H., Roziqovna, R. M., & Hamzaevich, S. J. (2023). BUGUNGI KUN KITOBLARI QANDAY BO ‘LISHI KERAQ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(1), 19-24.

9. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O ‘QUV YURTLARIDA MASHG ‘ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O ‘RNI. PEDAGOGS jurnali, 25(1), 52-55.